

Texnik ta'lim tizimida samarali texnologiyalar: o'qitishning keys texnologiyasi

«SHaxsning individual-tipologik xususiyatlari» mavzusida
« Kasbiy psixologiya» fanidan

KEYS – TEXNOLOGIYA

KEYS

“Darsda talabaning individual xususiyatlarini aniqlash mumkinmi?”

Toshkent – 2016

O'qitishning keys-texnologiyasi talabalarga amaliy vaziyatlarni individual va jamoaviy tarzda tahlil qilish, echish yo'riqnomasi orqali echim qidirishga hamda keysolog-o'qituvchining berilgan muammoga o'z echimini berishi asosida berilgan uslubiy ko'rsatmalaridan iborat.

Keys asosan kasbiy psixologiya fanidan o'qitadigan oliy o'quv yurtlari o'qituvchilariga, kollej va litsey tizimidagi psixolog-o'qituvchilarga mo'ljallangan.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'limi oldida yuqori malakali, raqobatbardoshli, har doim o'zgaruvchan tashqi muhitga moslasha oladigan va boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilish ma'suliyatini o'z bo'yniga oladigan mutaxassislar bo'lish imkonini beradigan, ya'ni oliy ta'lim bitiruvchilarida aqliy jihatdan etuklikni hamda kasbiy madaniyatni, ijtimoiy etuklikni shakllantirishni ta'minlashdan iborat bo'lgan umumiy maqsad turibdi.

Pedagogik jamiyat uchun quyidagilar: talabalarni nimaga o'qitish bilan birga qanday o'qitish muhimligini aniqlash zarurligi oydinlashmoqda. SHu bois pedagogik texnologiyalar sohasida eng muhimini tanlash muhimdir. Belgilangan maqsaddan kelib chiqib turli zamonaviy texnologiyalar ichidan biz keys-stadini tanladik.

Ko'pgina o'qituvchilar o'z tajribalarida keys-stadini qo'llayotganliklarini ta'kidlamoqdalar. Lekin o'qituvchi tomonidan ta'limiy maqsadda institutlashgan tizim hayotidan olingan haqiqiy dalillar asosida yoki shartli, sun'iy tuzilgan o'quv, muammoli yoki vaziyatli vazifalar keys hisoblanmaydi, balki vazifani echimi-o'qitishning keys-texnologiyasidir.

YAngi texnologiya o'qituvchidan kasbiy pedagogik ko'nikma va malakalarning mosligini talab etadi. Bunga ta'lim loyihalari nomi sohasida tayyorlangan ushbu keys-texnologiya yordam berishiga umid qilamiz. Ularni ishlab chiqilishi o'qituvchi-keysologlarni ta'limni texnologiyalashtirish va keyslarni ishlab chiqish qoidalari sohasidagi bilimlari, keys-stadi texnologiyasini loyihalash, rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga asoslanadi.

O'qitishning keys-texnologiyalari mukamallikdan hali uzoqda- universitet o'qituvchilari ular uchun yangi bo'lgan o'qitish texnologiyasini egallash bo'yicha boshlanish yo'lidalar. Eng muhimi - jarayonni yo'lga qo'yilgani.

KEYS

«Darsda o‘quvchining individual xususiyatlarini aniqlash mumkinmi?»

Mazkur keys oliy ta’limning kasbiy ta’lim yo‘nalishdagi barcha talabalar uchun mo‘ljallangan

Fanning nomi: “Kasbiy psixologiya”.

Mavzuning nomi “SHaxsning individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish”

Berilgan keysning maqsadi: Ta’lim tizimida o‘quvchining individual xususiyatlarini turli usullarda qo‘llashni aniqlashdan iborat.

O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- Ta’limda individuallikning o‘ziga xos tomonlarini ochib berish;
- O‘quvchining individual xususiyatlarga xos sifatlarini taxlil qilish;
- Ta’lim samaradorligida o‘quvchi-talabalarning individuallik jihatlarining ta’sirini aniqlash;
- Har bir o‘quvchi-talabaga xos temperament, xarakter, qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash va ularga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni.

Mazkur keys institutsional tizimning real faoliyat asosida ishlab chiqilgan.

Keysda ishlatilgan ma’lumotlar manbai quyidagilardan iborat:

1. «G.YU.Ayzenkning “Temperamentlarni aniqlash”» test natijalari
2. Ilqerbakov A.I. va boshqalar. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg‘ulotlar.– T. «O‘qituvchi»: 1984 y.

Texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda keysning tavsifnomasi:

Mazkur keys xona tadqiqotlari asosida syujetli toifasiga kiradi. Holat oliy ta’limning o‘quv tarbiya jarayonining tahliliy ko‘rsatkichlari asosida tuzilgan. Keysning ob’ekti bo‘lib: “Kasb ta’limi” yo‘nalishi talabalari hisoblanadi. Ushbu keys ma’lumotlar va dalillar asosida ishlab chiqilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan bo‘lib, treningga mo‘ljallangan o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan

Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys – tahlillarni o‘rgatish va baholash hisoblanadi. SHu sababdan, keys muammosining shakllanishi va tuzilishi, keys masalasining echimi algoritm va tahlil asosida ishlab chiqilgan.

Rasmiylashtirish tartibi: elektron holatda, bosmada.

Mazkur keysdan “Kasbiy psixologiya” fani bilan bir qatorda “Pedagogika. Psixologiya”, “Pedagogik texnologiyalar”, “Ta’lim texnologiyalari”, “Mutaxassislikka kirish” va “Kasbiy ta’lim uslubiyoti” kabi fanlar bo‘yicha ham foydalanish mumkin.

KIRISH

Har bir shaxs o‘ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan o‘xshash bo‘lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo‘yibasti bilan boshqa biror kimsaga o‘xshashi mumkin, lekin fe’li, mijoz va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil insonlar bo‘lmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko‘p jihatdan aynan

o'xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyasiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan.

Individual-psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta. Ular bizning jamiyatdagi o'rnimiz, obro'-e'tiborimiz, ishdagi va o'qishdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi qiyofamizni, kim ekanligimizni, kerak bo'lsa, o'zligimizni belgilaydi. Kim bilan qaerda uchrashmaylik, o'sha insonning bugungi holati, qayfiyati, bizga va biz bildirayotgan fikrlarga munosabati, hamkorlikda ishlash tilak-istaklariga doimo e'tibor beramiz va bu masala biz uchun muhim bo'ladi. Xuddi shunday suhbatdosh ham suhbatning boshidanoq, bizni o'rgana boshlaydi. CHunki agar suhbatdoshlar bir - birlarini bilsalar birgalikdagi faoliyatni samarali tashkil etish va undan foyda olish imkoniyati ko'proq bo'ladi. SHuning uchun ham ishda ham, dam olishga otlangan chog'da ham, qaerda bo'lsa ham o'zimizga «qo'shni» tanlaganda uning inson sifatida qanday ekanligiga qiziqamiz. Agar suhbatdosh yoki sherik bizga tanish bo'lmasa, uni taniganlardan oldindan so'rab ham olamiz va bunda aynan uning nimaga qobilligi, fe'li, ishga, odamlarga munosabatini so'raymiz va hohlaymizki, u to'g'risida «Juda xushfe'l, odamgir...» kabi tasniflarni eshitgimiz keladi. Biror erga ishga kirayotgan paytda ham rahbar albatta o'ziga yaqin odamlaridan yangi xodimning xarakterini, qobiliyatini va muhim narsalarga munosabatini albatta so'raydi va shu asosda suhbatga tayyorlanadi. Individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo'naltirilgan *muhim predmet* ekan. CHunki aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimdir juda chaqqon, tez ish qiladi, lekin sifatsiz. Kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudi va e'tiqodi bilan munosabatda bo'lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi. SHuning uchun ham individuallikning faoliyat va muloqotdagi samarasini inobatga olib, eng muhim individual-psixologik xususiyatlarni alohida o'rganamiz.

Biz atrofimizdagi odamlarga nazar tashlar ekanmiz, ularning nihoyatda har xilligini payqaymiz. Bir xil odamlar haddan tashqari serharakat, ularning xis tuyg'ulari juda jo'shkin, qiziqish doiralari g'oyat keng bo'lsa, boshqa bir odamlar kamharakat, vazmin, kamgap, xis-tuyg'ulari osoyishta, ko'p narsalar bilan ishlari bo'lmaydigan beparvo bo'ladilar. Odamlarning bir-birlaridan keskin farq qilishi qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Odamlar o'rtasidagi bu keskin farqlar, ularning tug'ma, biologik xususiyatlariga bog'lik. CHunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan - biologik yaxlitlik, tug'ma sifatlarini o'z ichiga olgan - individ hamdir. Temperament va layoqatlar individning dinamik - o'zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovchi sifatlarini o'z ichiga oladi. Bu sifatarning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyin ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi.

Psixologik jarayon

Maktabni tugatgandan keyin imtiyozli shahodatnoma olganlar orasida Po‘lat ham bor edi.

Po‘lat – kamtarin, odobli, texnikaga qobiliyati kuchli o‘smir. U birinchi sinfdan to 9-sinfgacha kishini hayron qoladigan darajada bir tekis –nuqul “4” va “5” baholar bilan o‘qidi.

Po‘lat asosan dars tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. U dastur materialidan tashqari deyarli hech narsa o‘qimaydi va deyarli hech qayoqqa bormaydi-buning uchun vaqti ham yo‘q. U o‘quvchilar uyushmasining a‘zosi, o‘z vazifalariga katta qiziqish bilan, sidqidildan, halol munosabatda bo‘ladi, biroq har doim vaqt etishmasligidan noliyveradi. Kolledagi o‘tgan kun uni qattiq charchatadi va uyga kelgach, tushlikni qiladi-yu, deyarli har safar yonboshlab yotib uxlab qoladi. Dars tayyorlash ancha uzoq vaqt cho‘ziladi. Har bir to‘siq va har bir kutilmagan vaziyat uning diqqat-e‘tiborini anchagacha band qilib turadi. U bir ishni bir necha marta qilishga moyil. Masalan, uy ishini qayta-qayta ko‘chirib yozadi, chunki har safar daftarning u yoki bu erini iflos qilib buzib qo‘yadi.

Fikr tarqoqligi Po‘latga xos bo‘lgan xususiyatdir: kitobni yoki daftarni ochib qo‘yib qanchadan-qancha vaqtini xayol surish bilan o‘tkazadi. Po‘lat maydachuyda narsalarni tezda ilg‘ab olib ularni tezda unutishga qodir emas. U allaqachon o‘tib ketgan voqealar haqida va hech qanday real ahamiyatga ega bo‘lmagan ishlar ustida tez-tez vaqt sarflab ovora bo‘ladi. Masalan, u ko‘pincha o‘quvchilar uyushmasi a‘zolari oldida o‘z nuqtai nazarini etarli darajada mufassal bayon etib bermagandek his qiladi va xayolida mana shu allaqachon muhokamadan o‘tib bo‘lgan masalaga yana qaytib, boshini og‘ritib o‘tiradi.

Po‘lat uchun o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatish masalasi murakkab kechinmalar manbai hisoblanadi. U IX-sinfda ham o‘qituvchilarga quyi sinflarda qanday munosabatda bo‘lgan bo‘lsa, shunday muomala qiladi – hamisha ulardan sal qo‘rqib, hayiqib turadi. YUqori sinflarda Po‘lat bir vaqtning o‘zida bir necha o‘qituvchini u yoki bu darajada yaxshi ko‘rib qolgan edi. U o‘sha o‘qituvchilarning tanbehlariga g‘oyat diqqat-e‘tibor bilan qaraydi. Ularning har bir nigoh tashlashini, qo‘l haraktlarini kuzatib boradi.

Po‘lat o‘z o‘rtoqlari bilan muloqotda ham qiynaladi. O‘ o‘z suhbatdoshining irodasi va kayfiyatiga juda tez berilib ketadi, kim bilan gaplashayotgan bo‘lsa beixtiyor o‘sha kishining xarakteriga moslashib qoladi; o‘zining uyatchanligidan va tevarak-atrofdagi kishilarning shaxsiy xususiyatlariga ortiq darajada diqqat-e‘tiborli u o‘z shaxsiy xulq-odob qoidasini shakllantirishga jur‘at eta olmaydi. Goho u hafachilikka moyil bo‘ladi va kimningdir etarli darajada mehribonchilik qilmagani uchun o‘zicha ich-ichidan hafa bo‘lib, mayus yuradi.

Po‘lat o‘z aqliy faoliyatini haddan tashqari ko‘p urinchoqlik bilan rejalashtiradi va tashkil etadi. VI sinfga o‘tishi bilanoq bir yilga mo‘ljallab va har bir chorakka mo‘ljallab taqvim rejalari tuzishga kirishadi. U ko‘pincha haftalik grafiklar: ertaga qilinadigan ishlar rejasini yozib-chizib o‘tiradi. Bu rejalarda u qilishi kerak bo‘lgan ishlarni kitoblarning nomlarini va hatto o‘qib chiqiladigan boblar, betlarni ham yozib qo‘yadi.

U erkin gapira olmaydi, ehtiyotkorlik ko'rsatib har bir so'zini va jumlasini necha bor o'ylab tanlab gapirayotganga o'xshab tuyuladi. Suhbat vaqtida u ijodiy fikrlashni va shu zahoti bir qarorga kelishni bilmaydi. Uning oldindan o'ylab qo'ygan fikrlarigina o'rtoqlariga ovoz chiqarib aytilgan vaqtda qiziqarli va e'tiborga sazovor bo'lib chiqadi.

Po'lat uzoq muddat aqliy mehnat qilgan vaqtlarida, garchi bu unga yoqadigan ish bo'lsa ham, baribir u asta-sekin charchab, horib-tolib bo'shshib boradi. Maktabda so'nggi soatlarga borib Po'lat birinchi soatlardagi g'ayrat bilan o'qiy olmaydi. Uning sur'ati tushib ketadi, mudroq bosayotgan odamga o'xshab fikrlaydi. Unga takrorlash darslari ayniqsa ko'proq yoqadi. U yangi materialga ham qiziqish bilan qaraydi, lekin yangi materialni o'zlashtirish vaqtida Po'lat hamisha charchaydi. Yangi materialni so'zlab berayotganda u bir oz hayajonga tushadi. Eski mavzularni takrorlagan vaqtda esa butunlay boshqa holni ko'ramiz. U o'sha materialni puxta o'rganib olgani uchun o'zini juda bemalol erkin tutadi. Asosiy dalillar va g'oyalarni egallab olganidan keyin "qolgan" gaplarni, fikr va mulohazalarni g'oyat tiniqlik va aniqlik bilan ifodalab bera oladi. Po'lat qiladigan ishini bir oz muddat "tashlab qo'yishni" yaxshi ko'radi. Bu vaqt ichida u o'sha ishning butun detallarigacha o'rganib oladi. U haqda uzoq muddat o'ylab yurishni va o'z o'y-fikrlarini takomillashtira borishni afzal ko'radi. Po'lat uchun xarakterli bo'lgan aqliy mehnat topshirig'ini qiyinchilik bilan engib o'tish holati o'zining ijobiy jihatlariga ham egadir. Bajariladigan ishni chuqur va puxta o'ylab ko'rilishi ana shunday ijobiy jihatlaridandir. "Har bir ishni chuqur o'ylab ko'radi" degan ibora Po'lat uchun juda mos keladi. U ba'zan javob berayotganda "kattalarga xos" fikr-mulohaza qilishi, javoblarining chuqur o'ylab ko'rilganligi va etukligi bilan hammani qoyil qoldiradi. U kelajakda buyuk kishi bo'lib etishishiga ishonging keladi. U kelgusida o'z ish faoliyatida qanday yutuqlarga erishishi mumkinligi to'g'risida gapirganda xuddi o'z ustidan kulayotgandek allaqanday bir itstehzoli ifodalar sezilib turadi: bu gaplarining real emasligi, bunday orzu-xayollar hali fantaziyadan iborat ekanligi, uning o'ziga ham tushunarli, biroq, baribir u o'z orzu-istaklari haqida qayta-qayta gapiraveradi. Po'lat maktabni tugatganidan keyin boshlanadigan hayoti quvonch va shodliklarga to'la bo'lajagini ishonch bilan gapiradi.

Talabalarga beriladigan mulohaza uchun savollar

1. Po'latga xos bo'lgan individual xususiyatlarni qanday aniqlash mumkin?
2. Po'lat shaxslararo muloqotda o'zini qanday his etadi?
3. Darsning samaradorligiga o'quvchi-talaba individualligining ta'siri qanday?

II.TALABALAR UCHUN METODIK KO‘RSATMA

Muammo:

O‘quvchiga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni dars jarayonida aniqlash

Vazifalar

1. Po‘latning dars jarayoniga bo‘lgan munosabatini aniqlash.
2. Darsdan tashqari paytda Po‘latda kuzatiladigan xususiyatlarni aniqlash.

Masalani echish tartibi

1. Po‘latga xos bo‘lgan temperamentni aniqlash:

- o‘quvchining temperamentini aniqlash;
- temperamentlarga xos xususiyatlarni o‘rganish (G.YU.Ayzenkning “Temperamentlarni aniqlash” testi yordamida).

2.Jamoatchilik ichida Po‘latning xususiyatlarini kuzatilishi:

- o‘z fikrini bayon qilishga nisbatan munosabati;
- dars jarayonida Po‘latning xususiyatlarini namoyon bo‘lishi.

3. Individual xususiyatlarning dars jarayoniga ta’siri yuzasidan pedagoglarga maslahat va tavsiyalar berish.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

O‘QUV-METODIK MATERIAL

G.YU.Ayzenkning “Temperamentlarni aniqlash” testi.

- 1.Kuchli hayajonni sinash uchun sizda yangilikka intilish seziladimi?
- 2.Sizni tushunadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan do‘st kerakligini his qilaysizmi?
- 3.Siz o‘zingizni tashvishi yo‘q odam deb hisoblaysizmi?
- 4.O‘ylagan narsangizdan qiyinchiliksiz voz kecha olasizmi?
- 5.Bir ish qilishdan oldin shoshmasdan, o‘ylab ish tutasizmi?
- 6.Hatto sizga foydasi bo‘lmasa ham va’dangizda turasizmi?
- 7.Kayfiyatingiz tez tushib, tez ko‘tariladimi?
- 8.Ko‘p o‘ylamay tez ish yurita olasizmi?
- 9.Jiddiy sabab bo‘lmasa ham o‘zingizni baxtsiz deb hisoblaysizmi?
- 10.Birov bilan bahslashsangiz, o‘zingizni ko‘p narsaga qodir ekanligingizga ishonasizmi?
- 11.Sizga yoqqan qarama-qarshi jinsli kishi bilan tanishishni istasangiz, tortinasizmi?
- 12.Jahlingiz chiqqanda o‘zingizni yo‘qotasizmi?
- 13.Ko‘pincha o‘ylamasdan sharoitga qarab ish tutasizmi?
- 14.Gapirmasam bo‘lar edi, shu ishni qilmasam bo‘lar edi, degan xayollar sizni tez-tez bezovta qiladimi?

- 15.Sizga kitob o‘qishga nisbatan odamlar bilan uchrashish afzalmi?
- 16.Hamma narsani o‘zingizga olaverasizmi?
- 17.Do‘stlar davrasida tez-tez bo‘lishni yoqtirasizmi?
- 18.Birovlar bilishini istamagan sirlaringiz bormi?
- 19.Ba‘zan g‘ayratingiz jo‘shib qadamingizdan o‘t chaqnaydi, ba‘zan esa hamma ishdan hafsalangiz pir bo‘lib, loqayd bo‘lasizmi?
- 20.Do‘stlaringiz davrasini eng yaqin do‘stlaringiz bilan chegaralanishini istaysizmi?
- 21.Siz ko‘p narsani orzu qilasizmi?
- 22.Sizga baqirib gapirishsa, siz ham xuddi shunday javob qaytara olasizmi?
- 23.Ba‘zan o‘zingizni biron narsada aybdor deb his qilasizmi?
- 24.Siz o‘z odatlaringizni yaxshi ekanligiga ishonasizmi?
- 25.O‘z hislaringizga erk berib, do‘stlar davrasida o‘zingizni betashvish his qilasizmi?
- 26.Asabingiz tarang bo‘lgan paytlar sizda ko‘p bo‘ladimi?
- 27.Sizni xushchaqchaq va tiyrak odam deb hisoblashadimi?
- 28.Biror ishni bajarib bo‘lgandan keyin, shu ishni bundan ham yaxshiroq bajarishingiz mumkinligi haqida o‘ylaysizmi?
- 29.Katta davralarda o‘zingizni xotirjam his qilasizmi?
- 30.Siz g‘iybat qilasizmi?
- 31.Miyangizga har xil xayollar kelib, sizga uyqu bermaydigan vaqtlar ko‘p bo‘ladimi?
- 32.Siz biror narsani bilishni istasangiz, do‘stlaringizdan so‘rab-surishtirishga nisbatan, shu narsani tezroq kitobdan qidirib topishni ma‘qul ko‘rasizmi?
- 33.Sizni yuragingiz tez-tez o‘ynab turadimi?
- 34.Diqqat - e‘tiborni bir joyga tortadigan ishlar sizga yoqadimi?
- 35.Sizni qaltiroq tutadimi?
- 36.Siz doim haq gapirasizmi?
- 37.Bir-birini kamsitadigan davralarda siz o‘zingizni xotirjam his qilasizmi?
- 38.Siz serjahlmisiz?
- 39.Sizga tez harakat talab qiladigan ishlar yoqadimi?
- 40.Hammasi yaxshilik bilan tugagan, lekin yomon oqibatlarga olib keladigan ishlar sizni xayolingizni bezovta qiladimi?
- 41.Harakatlaringiz sekin, chaqqon emasligi bu haqiqatmi?
- 42.Siz ishga yoki birov bilan uchrashuvga hech kechikkanmisiz?
- 43.Be‘mani tushlarni tez-tez ko‘rasizmi?
- 44.Siz gaplashishini sevganingiz uchun, notanish odamni ko‘rganingizda paytni boy bermasdan u bilan gaplashishga harakat qilasizmi?
- 45.Sizni biror bir og‘riq bezovta qiladimi?
- 46.Do‘stlaringiz bilan uzoq uchrashmasangiz hafa bo‘lasizmi?
- 47.Siz o‘zingizni asabi yomon kishi deb hisoblaysizmi?
- 48.Sizning tanishlaringiz orasida o‘zingizga yoqmaydiganlari ham bormi?
- 49.Siz o‘zingizni o‘ziga ishongan odam deb hisoblaysizmi?
- 50.Sizni shaxsiy yoki ishdagi kamchiliklaringizni tanqid qilishsa, bu shaxsiyatingizga tegadimi?

- 51.Ko‘pchilik bilan bajarilgan ishdan qoniqish qiyinligi rostmi?
 52.Sizni boshqalardan nima bilandir yomonman degan fikr bezovta qiladimi?
 53.Zerikarli davralarni qiziqтира olasizmi?
 54.O‘zingiz tushunmagan narsalar to‘g‘risida ham gapirgan vaqtlaringiz bo‘ladimi?
 55.O‘z sog‘lig‘ingiz haqida qayg‘urasizmi?
 56.Birovlar ustidan hazil qilishni yoqtirasizmi?
 57.Uyqusizlikka duchor emasmisiz?

TEST KALITI

№	Ha	Yo‘q	№	Ha	Yo‘q	№	Ha	Yo‘q
1.	E		20.		E	39.	E	
2.	A		21.	A		40.	A	
3.	E		22.	E		41.		E
4.	A		23.	A		42.		YO
5.		E	24.	YO		43.	A	
6.	YO		25.	E		44.	E	
7.	A		26.	A		45.	A	
8.	E		27.	E		46.	E	
9.	A		28.	A		47.	A	
10.	E		29.		E	48.		YO
11.	A		30.		YO	49.	E	
12.		YO	31.	A		50.	A	
13.	E		32.		E	51.		E
14.	A		33.	A		52.	A	
15.		E	34.		E	53.	E	
16.	A		35.	A		54.		YO
17.	E		36.	YO		55.	A	
18.		YO	37.		E	56.	E	
19.	A		38.	A		57.	A	

Test natijalari testning kaliti bilan solishtirib ko‘rib chiqiladi.
 Tekshiriluvchilarning javoblari yoniga kalitda mos kelgan “E”, “A” , “YO” harflarini qo‘yib chiqadilar. “E” va “A” harflar bo‘yicha olingan natijalar 0 dan 24 gacha bo‘lgan shkalalarga gorizontol va vertikal holatda joylashtirilib chiqiladi. “YO” harfi bo‘yicha 0 dan 6 gacha belgilangan.

Agar “E ” shkalasi bo‘yicha ballar soni 12dan ortiq chiqsa, bu shaxs “ekstrovert”dir. Bu tashqi muhitga yo‘nalgan, ob’ektning magnit kabi tortuvchi, qiziquvchan, impulsiv, hulq –atvori mustahkam, muloqotli, ijtimoiy muhitga moslashgan va unda o‘z o‘rnini topgan shaxsdir.

Agar “E” shkalasi bo‘yicha ballar soni 12 dan kam chiqsa, unda shaxs “introvert” Bu og‘ir, vazmin, ehtiyotkor, aqlli, muloqotga birinchi bo‘lib kirisha olmaydi. O‘z-o‘zini nazorat qilishga va o‘z- o‘zini tahlil qilishga moyil shaxsdir.

“A” shkalasi bo‘yicha 12 dan ortiq chiqsa, bu shaxs “Asabiy” hisoblanadi. O‘zini tuta bilmaslik, irodaviy bo‘sh, serjahl, shu bilan birgalikda faol, harakatchan, Muloqotli va boshlagan ishini oxirigacha etkazadi.

“YO” shkalasi - bu yolgʻonchilik shkalasidir. Bu ichki dunyosini ochmaslik, fikr va mulohazalarini boshqalardan sir tutishlik, oddiy qilib aytganda oʻzini “oyna” da odilona qilib koʻrsatish yoki oʻz-oʻzini baholashdir.


Agar tekshiriluvchining javob varaqasida “YO” shkalasi boʻyicha ballar soni 6tadan ortiq chiqsa, u holda tekshiriluvchi bir oz tanaffusdan soʻng qayta tekshirilishi lozim.

0 – 2 ball oʻz-oʻzini past baholash.

3 – 4 ball oʻz-oʻzini adekvat (haqqoniy) baholash.

5 – 6 ball oʻz-oʻzini yuqori daraja baholash.

Temperament xususiyatlari quyida keltirilgan jadvali maʼlumotlar asosida bayon etiladi.



Insonda shunday xususiyatlar mavjud bo'lishi ehtimoli borki, ularning mavjudligini hech kim, hattoki mazkur shaxsning o'zi ham bilmasligi mumkin. Bunday hislatlar bir umr mobaynida yuzaga chiqmasligi ham mumkin. Biroq, agar muayyan shart-sharoitlar tug'ilsa, ular go'yoki osmondan tushganday, kutilmaganda yuzaga chiqadi. Masalan, favqulotda holatlarda, yashash muhiti va sharoiti hamda ijtimoiy mavqei o'zgarganda...

SHuning uchun qadimiy maqollardan birida odamni to'liq bilish, uni mufassal baholash uchun u bilan birgalikda bir botmon tuz eyish kerak deyilgan...

G.Ayzenk bo'yicha shaxs

fe'li.

Tipik ekstrovert -- boshqa odamlarga tez kirishib ketadigan inson, boshqa odamlar bilan muloqat qilishga moyil, yangi ta'sirotlarga intiluvchan. U ulfatlarni yoqtiradi, ko'p do'stlari va tanishlari bor, beparvo, umid-ishonch bilan to'lgan, kulishni yoqtiradigan odam. SHuningdek, tajovuzkor, serjahl, ta'sirchan inson bo'lib, ko'pincha daqiqqa ta'sirida harakat qilishi mumkin.



His-tuyg'ularini qattiq nazorat qila olmaydi, tanishuvchi, odatda yaqinlashish uchun birinchi bo'lib gap boshlaydi.

Bu aksariyat hollarda boshqa odamlarga, tashqi xodisalarga qaragan, boshqalar uchun ochik odam, bundaylar nisbatan oson tushunish ob'ekti bo'lgan odamlardir. Unga muloqatga kirishuvchanlik, doimo odamlarga talpinish xarakterlidir. Kechalarni, o'tirishlarni, davralarni yoqtiradi, o'z atrofidagi yugurib-elishlar, jonlanish yoqadi. Quvnoq, sho'h, yolg'izlikka toqati yo'q, odamlarga ehtiyoj sezib turadi. Doimo yangi taasurotlarga talpinib turadi, agar ish tortishuvga, "garov"ga borib taqalsa, tezda qizishib ketadi, juda ko'p narsalarga urinishi mumkin. Odatda o'zi o'qishni, nimanidir qidirib topishni yoqtirmaydi, biroq yangi ma'lumotlarni boshqalardan olishni yoqtiradi. Qo'zg'alishlarga, taasurotlarga chanqoq, tavakkal qiladi va tavakkal qilishni yoqtiradi, ko'pincha soniyaviy holatlar, vaziyatlar ta'siri ostida xatti-harakat qiladi, tashqi ta'sirlarga beriluvchan, o'z ishlarini oldindan o'ylab o'tirishni yoqtirmaydi, balki birdaniga ishga kirishishni ma'qul ko'radi, o'tkir hazillarni yaxshi ko'radi, mijg'ovlanib gap bilan bironing ko'ngliga qo'l solmaydi, tez gapiradi va ishlaydi, odatda o'ziga ishonadi, o'zgarishlarni yaxshi ko'radi. Harakatsiz muloqot yuritishdan ko'ra, ish ko'rish, harakat qilishni ma'qul ko'radi. Tajovuzkorlikka, qiziqqonlikka mayli bor, sezilarli darajada betashvish va beg'am, hamma narsa o'z-o'zidan yo'lga tushib ketadi deb hisoblaydi. Boshqalarning hatti-harakati, qiliqlarini baholashda yon beruvchan. Uning hissiy kechinmalari jiddiy nazoratga ega emas, shuning uchun u hamma vaqt ham ishonsa bo'laveradigan odam emas. Ekstrovert («tashqariga yo'nalgan») — muloqatga oson kirishadi, yuqori darajadagi tajovuzkorlikka ega, etakchilik

qilishga intiladi, ko'pchilikning diqqat-markazida bo'lishni yoqtiradi, osonlik bilan tanishadi, g'ayratli, ochiq, tavakkalchi, odamlarning ichki dunyosiga qaramay tashqi ko'rinishiga qarab baho beradi, **xolerik yoki sangvinik**.

Tipik introvert -- qiyinchilik bilan muloqatga kirishuvchi, uyatchan, og'ir, o'z ichki dunyosiga ko'milgan, o'z-o'zini kuzatadigan, tuyuq odam. YAqin odamlaridan, boshqa hammadan ajralgan inson. U o'z harakatlarini oldindan rejalashtirib oladi, kutilmagan istaklarga ishonmaydi. U qo'zg'alishni, tartibni yoqtiradi, hayotda jiddiy. U his-tuyg'ularini qattiq nazorat ostiga oladi, kamdan-kam jahli chiqadi, qizishib ketmaydi, muloqatdagi va janjallardagi kelishmovchiliklarni jim turib to'xtatishga intiladi. U diqqatni, kuchni bir joyga to'playdigan va kam harakat talab qiladigan faoliyat turlarini yoqtiradi.

U o'zining ichki olamiga yo'nalgan, boshqa odamlar uchun yopiq, chetdan tushunish uchun bir oz qiyinroq odam. Odatda u xotirjam, vazmin, og'ir tabiatli, tortinchoq, o'z kechinmalarini muntazam tahlil qilib boruvchi odam. U kitob bilan muloqotda bo'lishni odamlar bilan muloqotda bo'lishdan afzal ko'radi, odatda gapga aralashmaydigan va o'zining yaqin odamlaridan boshqalar uchun uzoq, "notanish" odam, o'z atrofida elib-yugurishlarini yoqtirmaydi. U o'z xatti-harakatlarini oldindan batafsil rivojlantirib borishga moyil, to'satdan yuzaga kelgan ta'sirlarga ishonmaydi. U qo'zg'alishlarni, hayajonlarni yoqtirmaydi, jiddiy, doimo nimaningdir tashvishida yuradi, hayotda tartibni yoqtiradi, sekin harakat qiladi, juda kam gapiradi. U o'z hissiyotlarini jiddiy nazorat ostida tutadi, kamdan-kam hollarda tajovuzkorona hatti-harakatlar qiladi, qizishib ketmaydi, unga ishonsa bo'ladi. Biroz pessimistroq, estetik me'yorlarni yuqori qadrlaydi. Introvert («ichkariga yo'nalgan») — ichki kechinmalari dunyosiga yo'nalgan, kam muloqatchan, kamgap, yangi tanishlarni qiyinchilik bilan orttiradi, tavakkal qilishni yoqtirmaydi, eski aloqalar va munosabatlar uzilib qolsa qattiq hafa bo'ladi, havotirligi va ehtiyotkorligi yuqori, faolligi past, flegmatik, melanxolik.

Tipik ekstravert va introvertlar hayotda kam uchraydi, ular ko'pchilik odamlarda namoyon bo'ladigan hislatlarning qarama-qarshi qutblari hisoblanadi. Qolgan ko'pchilik odamlar shu qutblar oralig'ida joylashgan bo'ladi.

Tipik nevrotik (asabiy noturg'un) onglilik va ongsizlik o'rtasida yorqin nizolarni xarakterlaydi, shuning uchun ham salbiy his-tuyg'ularini yomon boshqaradi. Hissiy noturg'unlik odatda insonning gap ko'tara olmasligi bilan bog'langan bo'lib, u o'ziga ishonmaydi, boshqa odamlarning yordamiga yoki qo'llab-quvvatlashiga doimiy muhtoj. Uning kayfiyati o'zgaruvchan. U ko'pincha bunga jiddiy asos bo'lmasada o'zini bahtsiz, nimadandir boshqalardan yomon his qiladi, ba'zan u o'zini aybdordek sezadi. U orzu qilishni, har narsadan shubha qilishni yoqtiradi, jizzikilik qilib turadi. Nevrotik odatda boshidan kechirgan ko'ngilsizlikni uzoq vaqt eslab yuradi, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadi. Unga qaror qabul qilish qiyin, vaziyat shuni talab etsada o'z niyatlaridan voz kechishi ham qiyin. Nevrotik uchun tashqi psixik funksiyalarni to'liq saqlash xos.

U o'zining salbiy hissiyotlarini boshqara olmaydigan odam, shuning uchun bundan o'zi ham azob chekadi va boshqalarni ham qiynaydi. U doimo o'ziga ishonmaydi, unga, u nimasi bilandir boshqalardan kamdek u omadsizdek baxtsiz odamdek tuyulaveradi, doimo nimanidir noto'g'ri, boshqacha gapirib qo'ygandek

siqilib yuradi, doimo kimlardir unga dalda berib, uni qo‘llab-quvvatlashga, uni ma‘qullashlariga yoki uni tinchlashtirishlariga muhtojlik sezib yuradi. Unda

X.YU. Ayzenk shaxsning asosiy hislatlari ko‘rsatgichlari sifatida ekstroversiya-introversiya va neyrotizmdan foydalangan, bunda bu xususiyatlar genetik shartlangan deb hisoblanadi.

ko‘pincha kayfiyatning keskin o‘zgarishi, quvvatining ortishi va tushib ketishi hollari bo‘lib turadi, juda oson hafa bo‘ladi, tanqidga juda og‘ir, bunga salbiy munosabatda bo‘ladi, jahli tez chiqadi. Unda o‘zining holati, jismoniy salomatligiga bo‘lgan e‘tibori o‘ta yuqori, o‘zicha doimo kasal bo‘lib qoladigandek bo‘lib tuyulaveradi, o‘zini asabiy odam deb hisoblaydi, o‘z diqqatini asabiylikning tashqi namoyon bo‘lishiga (yurak urishi, bosh og‘rig‘i, titroq, nafas olishning o‘zgarishi va boshqalar) jamlaydi, ko‘pincha uyqusizlikdan qiynaladi, doimo nima uchundir havotirlanib yuradi, o‘ziga ishonmaganligidan u juda at‘iyatsizdir, ish qilishni emas balki hayol surish, orzu qilishni yoqtiradi, o‘zining o‘tmishini kavlishtirishni yoqtiradi, ayrim narsalarga ta‘sirchan. O‘ziga ishonmaslik o‘zining omadsizligini anglash nevrotilklarda ko‘pincha hasad va rashk kabi sifatlarni yuzaga keltiradi va bularni odatda uning o‘zi tan olmaydi, biroq bular anglanmagan holda uning hatti-harakati, qiliqlarida, odamlarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘lib turadi. Jamoada bu og‘ir, murakkab odam, unga juda sezgirlik, ehtiyotkorlik bilan yondoshish kerak.

Emotsional turg‘un (asabiy turg‘un) odam yuqorida keltirib o‘ytilganlarga qarama-qarshi sifatlarga ega bo‘ladi. Hissiy turg‘un inson o‘z hissiy holatini boshqara oladi, odamlar bilan bir hil muloqatga kirishadi, uni muvozanatdan chiqarish qiyin. U boshqalar tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj emas, jizzaki emas. Tipik nevrotilk va tipik turg‘un odamlar kam uchraydi. Ko‘pchilik odamlarda u yoki bu darajada ham asabiy turg‘unlik, ham noturg‘unlikka xos ko‘rinishlar namoyon bo‘ladi.

Ekstravert	Introvert	Neyrotizm
<p>SHaxsning atrofdagi odamlarga va voqea-hodisalarga yo'nalganligi.</p> <p>SHartli reflekslar introvertga qaraganda iyyinroi shakllanadi, u og'riqqa ko'proq chidamliroq, biroq sensor deprivatsiyalarga chidamsizroq bo'ladi, buning oqibatida u monoton hatti-harakatlarga dosh berolmaydi, ko'pincha ish vaqtida har hil narsalarga chalg'ib turadi. Uning odamlar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoji yuqori, tashqi ta'sirlarga beriluvchan, o'z-o'zini nazorat qilishning etarli emasligi, muhitga yaxshi moslashuvchanlik, hissiyotlarda oshkoralik kabilar misol bo'la oladi. U hozirjavob, quvnoq, o'ziga ishongan, tavakkalchilikni yoqtiradigan, hamma vaqt ham aytganini bajaravermaydigan odam.</p>	<p>SHaxsni o'zining ichki olamiga yo'nalganligi.</p> <p>Unda hulqning quyidagi xususiyatlari ustunlik qiladi. U ko'pincha o'zi bilan o'zi ovora, odamlar bilan kontaktga kirishishda va voqelikka moslashishda qiyinchiliklarni boshdan kechiradigan odam. Ko'pchilik hollarda introvert xotirjam muvozanatli, tinchliksevar, xatti-harakatlari o'ylangan, oqilona, maqsadga muvofiq. Uning o'rtoqlari doirasi unchalik ko'p emas. U estetik me'yorlarni yuqori qadrlaydi, kelajakni rejalashtirishni yoqtiradi, nimani va qanday qilish ustida jiddiy o'ylaydi, to'satdan yuzaga kelgan xoxish-istaklarga berilmaydi, umidsizlikka tushuvchan odamdir. U o'z hissiyotlarini qat'iy nazorat qiladi va kamdan-kam hollarda o'zini tajovuzkorona tutadi, mas'uliyatli.</p>	<p>Bu havotirlanish sinonimi bo'lib, hissiy noturg'unlik zo'riqqa nlik, deperativlik, ruhiy siqiqlik shaklida ko'rinadi.</p> <p>Neyrotizmning bir qutbida neyrotiklar deb ataladigan noturg'unligi, nerv-psixik jarayonlarning muvozanatsizligi, shuningdek vegetativ nerv sistemasining beqarorligi bilan farqlanib turadigan emotsional noturg'un odamlar turadi. SHuning uchun ularga asosan qo'zg'aluvchanlik, kayfiyatning o'zgaruvchanligi, sezgirlik ta'sirlanuvchanlik shuningdek havotirlanish, shubhalanuvchanlik, sustkashlik kabi hislatlar xosdir. Neyrotizmning boshqa qutbi - bu emotsional turg'un shaxslar, ular xotirjamlik, muvozanatlilik, vazminlik, ishonchlilik, qat'iylik kabi sifatlar bilan xarakterlanadi.</p>

Ekstraversiya-introversiya va turg'unlik-noturg'unlikning ko'rsatkichlari bir-birlari bilan o'zaro bog'lanmagan va bipolyardir. Ularning har biri o'ta kuchli ifodalangan shaxsiy xususiyatlar ikki qutbi o'rtasidagi uzluksizlikni tashkil etadi. Bu turli darajada ifodalangan ikki hislatning o'zaro birikishi shaxsning takrorlanmas o'ziga hosligini yuzaga keltiradi. Ko'pchilik sinalluvchilarning xarakteristikasi shu qutblar o'rtasida, ko'pincha markazga yaqin joyda bo'ladi. Ko'rsatkichning markazdan uzoqlashuvi o'rtachadan og'ish darajasi haqida va shunga mos ravishda shaxs sifatlarining ifodalanishi haqida ma'lumot beradi.

SHaxsning ikki omillilik modeli

III. O'qituvchi tomonidan keysni echish va tahlil qilish varianti

1: Po'latga xos bo'lgan individual xususiyatlarni qanday aniqlash mumkin?

Po'lat o'z o'rtoqlari bilan muloqotda ham qiynaladi. O' o'z suhbatdoshining irodasi va kayfiyatiga juda tez berilib ketadi, kim bilan gaplashayotgan bo'lsa beixtiyor o'sha kishining xarakteriga moslashib qoladi; o'zining uyatchanligidan va tevarak-atrofdagi kishilarning shaxsiy xususiyatlariga ortiq darajada diqqat-e'tiborli u o'z shaxsiy xulq-odob qoidasini shakllantirisha jur'at eta olmaydi. Goho u xafachilikka moyil bo'ladi va kimningdir etarli darajada mehribonchilik qilmagani uchun o'zicha ich-ichidan hafa bo'lib, mayus yuradi.

Ushbu tavsiflardan Po'latning melankolik temperamentga ega o'quvchiligini aniqlash mumkin.

SHaxs – aqliy hamda ahloqiy salohiyatga ega inson. SHaxs - qaytarilmas, u o'z sifatleri va xususiyatlari borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual-psixologik xususiyatlari majmui yotadi.

2: Po'lat shaxslararo muloqotda o'zini qanday his etadi?

U erkin gapira olmaydi, ehtiyotkorlik ko'rsatib har bir so'zini va jumlasini necha bor o'ylab tanlab gapirayotganga o'xshab tuyuladi. Suhbat vaqtida u ijodiy fikrlashni va shu zahoti bir qarorga kelishni bilmaydi. Uning oldindan o'ylab qo'ygan fikrlarigina ovoz chiqarib o'rtoqlariga aytilgan vaqtda qiziqarli va e'tiborga sazovor bo'lib chiqadi.

Po'lat kabi talabalarga o'z galar bilan ko'proq muomalada bo'lishni tavsiya qilish lozim. Ayniqsa bo'lg'usi pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishni ma'qul topgan talabalarda notiqlik bo'yicha keng tarzdagi malaka va ko'nikmalar shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonida Po'latda quyidagi xolatlar kuzatiladi:

Po'lat uzoq muddat aqliy mehnat qilgan vaqtlarida, garchi bu unga yoqadigan ish bo'lsa ham, baribir u asta-sekin charchab, xorib-tolib bo'shahib boradi. Maktabda so'nggi soatlarga borib Po'lat birinchi soatlardagi g'ayrati bilan o'qiy olmaydi. Uning sur'ati tushib ketadi, mudroq bosayotgan odamga o'xshab fikrlaydi. Unga takrorlash darsleri ayniqsa ko'proq yoqadi. U yangi materialga ham qiziqish bilan qaraydi, lekin yangi materialni o'zlashtirish vaqtida Po'lat hamisha charchaydi. YAngi materialni so'zlab berayotganda u bir oz hayajonga

tushadi. Eski mavzularni takrorlagan vaqtda esa butunlay boshqa holni ko‘ramiz. U o‘sha materialni puxta o‘rganib olgani uchun o‘zini juda bemalol erkin tutadi. Asosiy faktlar va g‘oyalarni egallab olganidan keyin “qolgan” gaplarni, fikr va mulohazalarni g‘oyat tiniqlik va aniqlik bilan ifodalab bera oladi. Po‘lat qiladigan ishini bir oz muddat “tashlab qo‘yishni” yaxshi ko‘radi. Bu vaqt ichida u o‘sha ishning butun detallarigacha o‘rganib oladi. U haqda uzoq muddat o‘ylab yurishni va o‘z o‘y-fikrlarini takomillashtira borishni afzal ko‘radi. Po‘lat uchun xarakterli bo‘lgan aqliy mehnat topshirig‘ini qiyinchilik bilan engib o‘tish holati o‘zining ijobiy jihatlariga ham egadir. Bajariladigan ishni chuqur va puxta o‘ylab ko‘rilishi ana shunday ijobiy jihatlardandir. “Har bir ishni chuqur o‘ylab ko‘radi” degan ibora Po‘lat uchun juda mos keladi. U ba‘zan javob berayotganda “kattalarga xos” fikr-mulohaza qilishi, javoblarining chuqur o‘ylab ko‘rilganligi va etukligi bilan hammani qoyil qoldiradi.

3:Individual-tipologik xususiyatlarning dars jarayoniga ta’siri yuzasidan pedagoglarga maslahat va tavsiyalar:

Ko‘rsatilgan holatlarni hisobga olib, melanxolik mijoz o‘quvchisiga yondoshishda ehtiyotkorlik talab etilishini unutmaslik lozim. SHu bilan birga pedagoglarga quyidagilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiqdir, ya’ni

1.Dars samaradorligi albatta pedagogning talabalar individualligini bilishi va unga mos tarzda yondlashishiga bog‘liqdir.

2.Guruhdagi sog‘lom psixologik muhitning yuzaga kelishi, talabalar xarakteridagi sifatning o‘zaro mosligiga bog‘liqdir.

3.Talabaning o‘z sohasini to‘g‘ri tanlashi va kelajakni to‘g‘ri yo‘naltirishida, unga xos bo‘lgan qiziqish va kasbga moyilligining ta’siri kattadir.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, har bir pedagog o‘zi ta’lim va tarbiya berayotgan o‘quvchi-talabasining individual xususiyatlarini bilishi va o‘z faoliyatida alohida ahamiyat berishi lozim. Har bir shaxs faqat ta’lim, ijtimoiy tarbiya va ma’naviy kamolot, kasb-hunar o‘rganish tizimi vositasidagina shahs bo‘lib shakllanadi. CHunki shaxsdagi individuallikni qanchalik aniq va to‘g‘ri anglash o‘quvchi-talabaning imkoniyatini shunchalik kengaytirib, o‘z qiziqqan sohasida kelajakda etuk mutaxassis bo‘lishiga asos bo‘ladi. Zero jamiyatimiz ravnaqi talaba-yoshlarning etukligi bilan bog‘liqdir. Har bir shaxsning tabiiy individualligini aniqlab, unga to‘g‘ri munosabatda bo‘linsa, o‘z sohasining ustasi bo‘lgan va jamiyat ravnaqi uchun jonkuyarlar hisoblanmish yoshlar yanada ko‘pchilikni tashkil etishi tabiiydir

IV.KEYS-TEXNOLOGIYA DARSIGA TEXNOLOGIK XARITA **«Darsda o‘quvchining individual xususiyatlarini aniqlash mumkinmi?»** **mavzusi bo‘yicha**

4.1.Amaliy mashg‘ulot darsining texnologik xaritasi

<i>Talabalar soni:</i> 25	<i>Vaqt:</i> 2 soat
<i>Dars shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustaxkamlashga

	qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Mashg'ulot rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1.Keys bilan tanishuv. 2. Mavzuning mazmunini tahlili. 3. Guruh tavsifi bilan tanishish 4. Aniq maqsadlarini belgilash. 5. Muammoning echimini topish va uni asoslash.
<i>Dars maqsadi:</i> Talabalarga har bir shaxsga xos bo'lgan individual xususiyatlarni aniqlash va ta'lim jarayonida hisobga olishga o'rgatish.	
<i>Pedagog vazifasi:</i>	<i>O'quv natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • mavzu bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlashga motivatsiya yaratish; •Mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va chuqurlashtirish; • Muammoli vazifalarni hal qilish, muammoni tahlil qilish, muqobil qarorlarni ilgari surish, muqobillarni baholash, yakuniy qaror shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirish. 	<p>Materialda berilgan individual xususiyatni qaysi temperamentga xosligini aniqlaydi;</p> <ul style="list-style-type: none"> •Temperament xususiyatlari bo'yicha jadval tuzishadi; • muammoli vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni qo'llaydilar.
<i>Usul va texnikalar</i>	Keys-stadi, aqliy xujum, taqdimot, munozara, nima uchun, qanday.
<i>O'qitish vositalari:</i>	Keys, tarqatma materiallar, qog'ozlar, doska, markerlar, skotch.
<i>O'qitishning shakli</i>	YAKka tartibda va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoilari:</i>	Guruhda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, blits-so'rov, taqdimot,baho

1.2. O'quv mashg'ulotining texnologik xartiasi

Faoliyat bosqichlari	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Pedagog faoliyati</i>	<i>Talaba faoliyati</i>
1-bosqich kirish (10 daqiqa)	<p>Mavzuni e'lon qiladi, maqsad va vazifalarni yoritadi va o'quv natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>Ishlash lozim bo'lgan keysning pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini yoritadi.</p> <p>Seminarni tashkil etuvchi bosqichlar ketma-ketligi bilan talabalarni tanishtiradi.</p> <p>Talabalarga keys materialini tarqatadi.</p>	<p>Eshitadilar va ilova bilan tanishadilar.</p> <p>Tanishadilar</p>
2- bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 2.1.Talabalar diqqatini muammoga, uni echish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarga va harakatlar ketma-ketligiga jalb etadi. 1-2-ilova . 2.2. Avval individual holda keys bilan tanishishni 	<p>Eshitadilar va tushunmaganlarini aniqlaydilar.</p> <p>Organayzerlarda</p>

	<p>tashkil etadi, soʻngra talabalarni kichik guruhlarga ajratadi.</p> <p>2.3.Talabalarga matnda berilgan tavsif qaysi temperament tipiga xosligini aniqlash va jadval asosida taxlil qilish vazifasini yuklaydi.</p> <p>2.4.Guruh ichida muammoni tahlil etishni tashkil etadi.</p> <p>2.5.G.YU.Ayzenkning “Temperamentlarni aniqlash” testiga javob berish orqali ham materialdagi xarakteristikani tasdiqlaydilar.</p> <p>2.6. Taqdimotning boshlanishini eʻlon qiladi.</p> <p>2.7.Taqdimotga tayyorlashning talablarini va baholash meʻzonlarini eʻlon qiladi.</p> <p>2.8. Taqdimotdan soʻng savollar asosida bahs-munozarani tashkil etadi.</p>	<p>ishlaydilar.</p> <p>Individual holda matn bilan tanishgach, kichik guruhlarda ishlaydilar.</p> <p>Muammoni echimini topadilar va echim variantlarini tahlil qiladilar.</p> <p>Savollarga bilan ishlaydilar.</p> <p>2.3.Taqdimot qiladilar. Savollarga javob beradilar va boshqa guruhlarining muammoning echimi boʻyicha bergan javoblarini tahlil qiladilar.</p> <p>2.4.Taqdimotga baho beradilar.</p>
3-bosqich YAkunlash, tahlil va baholash (10 daqiqa)	<p>3.1. Taqdimot davrida ilgari surilgan echimlarni tahlil qiladi va umumlashtiradi.</p> <p>3.2.Guruhlarning ishini va har bir talabaning faoliyatini alohida baholaydi.</p> <p>3.3. Keysni echish jarayonida qanday qiyinchiliklarga uchraganliklarini va bundan buyon qaysi yoʻnalishda talabalar oʻz ustida ishlashlari va kasbiy tayyorgarlik koʻrishlari yuzasidan maslahatlar beradi.</p>	<p>Eshitadilar va oʻz fikr-mulohazalarini bildiradilar.</p>

1-ilova

Guruhlarning ishlashini baholash jadvali

Baxolash mezonlari	
	<p>Taqdimot (mazmuni, maʼnosi va xulosalarning isboti uchun)</p> <p>Aʻlo – 2 ball</p> <p>YAxshi – 1,5 ball</p> <p>Qoniqarli – 1 ball</p> <p>Qoniqarsiz – 0,5</p>
	<p>Muammoli masalaning echimi uchun (toʻgʻriligi va echimning ketma-ketligi uchun)</p> <p>Aʻlo – 2 ball</p> <p>YAxshi – 1,5 ball</p> <p>Qoniqarli – 1 ball</p> <p>Qoniqarsiz – 0,5 ball</p>
1	
2	
3	

2 – ilova

Мунозара ишгирокчисига эслатма:

1. Мунозара муносабатларни ҳал этиш усули эмас, балки муаммони ҳал этиш усулидир.
2. Бошқа ишгирокчиларга ҳам сўз бериш учун узоқ вақт нутқ сўзлама
3. Хар бир сўзни ўйлаб, тўғри фикр ифода қил, хиссиётларингни назорат қил, чунки сенинг ақлий фикрларинг ўз мақсадга этиши керак.
4. Оппонент нутқга назарини тушинишга ҳаракат қил, уни ҳурмат қил.
5. Оппонент фикрини бузмасдан эътирозларингни аниқ билдир.
6. Фақат баҳс мавзуси бўйича фикр билдир, кшп ўқиганлигинг ва умумий билимдонлигини рукач қилма.
7. Кимгадир ёкишни кўзлаб ҳушомад қилишингга ва ўз нутқинг билан ранжитишга қарши курашгин.


3 - ilova

Blits so‘rov savollari:

- Individual xususiyatlarga nimalar kiradi?
- SHaxs rivojlanishida individual xususiyatlarning ta'siri qanday?
- Darsning samaradorligiga o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari ta'sir qiladimi?
- Temperament va xarakterning bog‘liqligi nimada?

Ilova 1.

«Нима учун?» схемаси – Ўқувчининг темпераментини ўрганиш(лавҳа)



5

“Нима учун” схемаси


“Нима учун” схемасини тузиш коидаси билан танишадилар. Алохида/кичик гуруҳларда муаммони ифодалядидилар. “Нима учун” сўроғини берадилар ва чизадилар, шу саволга жавоб ёзадилар. Бу жараён муаммонинг дастлабки сабаби аниқланмағунича давом этади.

“Нима учун” схемаси-муаммонинг дастлабки сабабларини аниқлаш бўйича фикрлар занжири.
Тизимли, ижодий, тахлилий фикрлашни ривожлантиради ва фаоллаштиради.

Кичик гуруҳларга бирлашадилар, такқослядидилар, ўзларининг чизмларини тўлдирадилар. Умумий чизмага келтирадидилар.

Иш натижаларининг тақдимоти

«Қандай?» иерархик диаграммаси – Муаммони ечишнинг усул ва воситалари (лавҳа)



«Қандай?» диаграммаси

